

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI



O'quvshilari bo'yicha prorektor
prof. R. J. O'raev

2024 yil 12.12

SANOAT GEOGRAFIYASI

fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 530000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi: 60530400 - Geografiya

Termiz-2024

Fan/modul kodi SGEB304	O'quv yili 2024-2025	Semestr 5	Kreditlar 4
Fan/modul turi Tanlov	Ta'lim tili o'zbek	Haftadagi dars soatlari 4	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari	Jami yuklama
Sanoat geografiyasi		60	120
<p>1. I. Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda sanoat geografiyasining nazariy asoslariga doir bilimlarni, xususan, turli tarmoq va sohalar sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholi hamda aholiga xizmat ko'rsatish korxonasi yoki muassasalarni joylashtirishda vujudga kelgan (kelayotgan) hududiy majmualarni o'rganish, bu haqda xorijiy olimlarning nazariy qarashlarini tahlil qilish, ushbu majmualarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ekologik muammolarini aniqlash, shuningdek, shu sohaga xos ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarish malakalarini shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - talabalarni sanoat geografiyasi fanining obyektini, predmeti va tadqiqot usullari bilan tanishtirish, sanoat tarmoqlarining joylanish tamoyil va qonuniyatlarini o'rganish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil qilish xususiyatlari va bu borada davlatning mintaqaviy siyosatini o'rganish, sanoat geografiyasiga doir ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, bajarish va xulosalar olishga o'rgatishdan iborat.</p>			
<p>II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p>III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</p> <p>1-mavzu: Kirish. Sanoat geografiyasining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari Sanoat geografiyasining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Sanoat geografiyasini fanlar tizimida tutgan o'rnini va aloqalari. Sanoat geografiyasining shakllanishi va rivojlanishi. Sanoatning xo'jalik rivojlanishidagi o'rnini va ahamiyati</p>			

2-mavzu: Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shakllari

Sanoat ishlab chiqarish kontsentratsiyasining mohiyati, mazmuni, shakllari, ko'rsatkichlari. Kombinatsiyalarning uning shakllari va ko'rsatkichlari. Ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko'rsatkichlari. Kooperativlashtirish, Kombinatsiyalarning uning shakllari va ko'rsatkichlari.

3-mavzu: Sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil qilish va rayonlashtirish

Rayon hosil qiluvchi yetakchi omil hududiy mehnat taqsimoti ekanligi. Iqtisodiy rayon. Sanoatning hududiy tashkil qilish omillari va majmualari. Sanoatning hududiy tashkil qilish xususiyatlari. Sanoat tugunlari va markazlari, tarmoqlararo majmualar

4-mavzu: Sanoat tarmoqlari hududiy joylashishi, rivojlanishiga tabiiy va iqtisodiy omillarning ta'siri.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda hududning ahamiyati. Tabiiy boyliklar. Iqlim. Suv bilan ta'minlanish imkoniyatlari. Organik olam. Sanoatning tabiatga ta'siri.

Sanoatni rivojlanishida aholining tutgan o'rnini. Shaharlarning sanoat tarmoqlarini joylashishidagi ahamiyati. Energetikaning sanoat tarmoqlarini joylashishiga ta'siri. Sanoat tarmoqlarini hududiy joylashishida transportning tutgan o'rnini. Sanoatning tarmoqlar tarkibi.

5-mavzu: Yoqilg'i sanoati tarmoqlar tarkibi.

Yoqilg'i sanoati. Mineral yoqilg'i hozirgi zamon xo'jaligida energiyaning asosiy manbai va sanoat xom ashyosi ekanligi. Yoqilg'i sanoati korxonalarini geografiyasiga xom ashyo zahiralarning ta'siri.

Neft sanoati. Neft sanoatining tarkib topishi va ahamiyati. Neftni qazib olish va qayta ishlash. Neft maxsulotlari va uni qo'llash. Neft va neft maxsulotlarini tashish va saqlash. Neftni qayta ishlash korxonalarini va ularning hududiy joylashish xususiyati.

Gaz sanoati. Gaz sanoatining shakllanishi va ahamiyati. Yonuvchi gazning turlari. Tabiiy gazning tarkibi va undan foydalanish. Gazni qazib olish, tashish va saqlash. Gaz sanoatining rivojlanishi.

Ko'mir sanoati. Ko'mir qazib olish korxonalarining joylashuvi. Qazib olinadigan ko'mirning turlari va ularning tarkibi. Ko'mirni qazib olish usullari. Ko'mirni kokslash. Ko'mirdan iqtisodiyotda foydalan

6-mavzu: Elektroenergetika.

Elektroenergetikaning tarkibi va ahamiyati. Issiqlik elektr stantsiyalar. Ularning hududiy joylashishiga ta'sir etuvchi omillar. Atom elektr stantsiyalar va ularning joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy, iqtisodiy omillar. GES lar, ularning joylashishidagi o'ziga xos xususiyatlar. Muqobil energiya manbalari. Shamol energiyasi. Quyosh energiyasi. Geotermik va dengiz energiyasi. Elektroenergiyani uzatish. Elektroenergetika sanoatining rivojlanish istiqbollari

7-mavzu: Qora metallurgiya sanoati.

Qora metallurgiya sanoati. Tarmoqning joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Qora metallar, ularning tarkibi va olish usullari. Temir rudalari. Cho'yan po'lat va prokat ishlab chiqarish.

8-mavzu: Rangli metallurgiya sanoati.

Rangli metallurgiya sanoati. Rangli metallarning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Rangli metallurgiyaning tarkibi va uni joylashishiga ta'sir etuvchi omillar. Rangli metallurgiya xom ashyosining o'ziga xos xususiyatlari. Rangli metallarni boyitish. Mis, nikel, qalay va alyumin ishlab chiqarish. Rangli metall ishlab chiqarish korxonalarining hududiy joylashuvi.

9-mavzu: Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati.

Tarmoqning ahamiyati, xom ashyo manbai, tarkib topishi. Mashinasozlikni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Mashinasozlikning tarmoqlar tarkibi. Yuqori texnologik tarmoqlar. Yuqori texnologik tarmoqlarning vujudga kelishi va hududiy xususiyati.

10-mavzu. Kimyo sanoati.

Tarmoqning xom ashyo bazasi, turli tarmoqlarining tarkib topishi. Kimyo sanoati korxonalarining joylashuvi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar (o'g'itlar, kislotalar, tolalar va boshqalar). Tarmoq korxonalarini joylashishining geografik jihatlari:

11-mavzu. Qurilish materiallari va o'rmon sanoati.

Tarmoqning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining joylashuvi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar. Sement ishlab chiqarish. Yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati.

12-mavzu. Yengil sanoat tarmoqlari geografiyasi.

Yengil sanoatning shakllanishi va tarmoqlar tarkibi. To'qimachilik sanoati. To'qimachilik sanoatining asosiy markazlari. Ip gazlama ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar. Tikuvchilik sanoati. Ko'n-poyabzal sanoati.

13-mavzu. Oziq-ovqat sanoati.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Un-yorma sanoati. Go'sht va go'shtni qayta ishlash sanoati. Shakar sanoati. Choy sanoati. O'simlik va hayvon yog'i ishlab chiqarish. Tamaki sanoati. Vino sanoati. Baliqchilik sanoati.

14-mavzu. Agroindustrial sikl.

Qishloq xo'jaligining iqtisodiyotda tutgan o'rni. Qishloq xo'jaligini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibi. Agrosanoat majmuasi.

15-mavzu. Sanoatni joylashtirishning statik modellari va dinamik nazariyalari

Geografiyaning ilmiy tadqiqotlari va ishlannalari. A. Veber va V. Launxardning joylashtirish (shandort) nazariyasiga qo'shgan hissalar. Mahsulotning hayotiylik sikli gipotezasi. Nikolaya Kondratevning uzun to'liqlar nazariyasi. Valter Kristaller – markaziy joylar nazariyasining asoschisi. Erkin iqtisodiy mintaqalarning shakllanishi.

N.N. Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari kontseptsiyasi. N.N. Kolosovskiy g'oyasi bo'yicha energiya ishlab chiqarish sikllarini aniqlash. Maykl Porter – iqtisodiy klasterlar kontseptsiyasining asoschisi.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning sanoat tarmoqlari joylashishi, rivojlanishiga ta'siri
2. Iqtisodiy-ijtimoiy omillarning sanoatni joylashishi, rivojlanishiga ta'siri.
3. Yoqilg'i sanoati va uning tarmoqlar tarkibi, hududiy tarkibini tahlil qilish.
4. Elektroenergetika sanoatining tarmoqlari va rivojlanishi.
5. Qora metallurgiya sanoati uni joylashtirishning o'ziga xos xususiyati.
6. Rangli metallurgiya sanoati tarmoqlar tarkibi va bugungi kundagi rivojlanishi statistik ma'lumotlar asosida tahlili.
7. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari.
8. Kimyo sanoatini xo'jalikdagi ahamiyati va tarmoqlari.
9. Qurilish materiallari sanoati.
10. O'rmon sanoati va uning hududiy xususiyatini tahlil qilish.
11. Yengil sanoatning tarmoqlar tarkibi va bugungi kundagi hududiy xususiyati.
12. Oziq-ovqat sanoati.
13. Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shakllari.
14. Sanoat tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.
15. O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish.

Amaliy mashg'ulotlar auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

(Independent study and independent work)

Mustaqil ta'lim ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriq savollarni o'z ichiga oladi.

1. M.Porterning iqtisodiy klasterlar kontseptsiyasi.
2. N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari to'g'risidagi nazariyasi.
3. Sanoatning hududiy majmualari.
4. Sanoat tarmoqlari va ularni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.
5. Transport tarmoqlarining joylanish omillari.

<ol style="list-style-type: none">6. Og'ir sanoatni joylashuviga ta'sir qiluvchi omillar.7. Sanoat tarmoqlarini joylashuvida transportning tutgan o'rni.8. Sanoat tarmoqlari joylashuvining ekologik jihatlari.9. O'zbekistonda mashinasozlikning rivojlanishi.10. Sanoat rayonlari.11. Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati rayoni.12. Transport va hududiy majmualar.13. Erkin iqtisodiy zonalar.14. To'qimachilik sanoat tarmog'ining istiqbollari.15. Agrosanoat majmuasi.16. Qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari17. O'rmon sanoati va uning hududiy xususiyatini tahlil qilish.18. Agroindustrial tsikl.19. Valter Kristaller – markaziy joylar nazariyasining asoschisi.20. A.Veber va V.L.aunxardning joylashtirish (shtandort) nazariyasiga qo'shgan hissalari.	<p>4.</p> <p>V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)</p> <p>Sanoat geografiyasi fanini o'zlashtirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalangan holda, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etib, talabalarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi. Shuningdek, atroflicha bilim olish maqsadida, talabalarga musqatil ish va mustaqil ta'lim beriladi. Bu faning yutuqlarini Qishloq xo'jaligi geografiyasi va iqtisodiyotning boshqa sohalariga tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir.</p> <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</p> <ul style="list-style-type: none">• ma'ruzalar – kompyuter texnologiyasi asosida slaydlar namoyishi;• amaliy mashg'ulotlar - berilgan topshiriqlar amaliy metodlar asosida olib boriladi;• interfaol keys-stadilar;• guruhlarda ishlash; klaster• taqdimotlarni qilish;	<p>5.</p> <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida</p>
--	---	--

